

KASBIY PSIXOLOGIK TANLOVNI AMALGA OSHIRISHDA SHAXSNING IJTIMOY USTANOVKALARINI O'RGANISH

Soliyev Farhodjon

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)*

Turdimatov Jahongir

Farg'ona davlat universiteti magistri

Annotatsiya: *Maqolada kasbiy psixologik tanlovni amalga oshirishning maqsad va vazifalari, hamda tanlov jarayonida psixologik yondashuvning ahamiyati yoritilib berilgan. Shuningdek, ishchi –xodimlarning o'z-o'zini anglashining ijtimoiy-psixologik ustanovkalar bilan bog'liq natijalari e'lon qilinib, mehnat, erkinlik, homiyat va pulga yo'nalganlikning jinsiy tafovutlari hamda psixologik xususiyatlari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *rekruting, kasbiy psixologik tanlov (KPT), ijtimoiy-psixologik ustanovka, uyg'unlashgan va uyg'unlashmagan motivatsiya, kuchli va kuchsiz namoyon bo'ladigan motivatsiya, shaxs yo'nalganligi*

Rekruting yordamida ishga qabul qilish zamonaviy va samaradorligi yuqori bo'lgan usul deb e'tirof etilib kelinmoqda. Aslida ishga qabul qilish bu rahbariyat tomonidan aniq belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur fazilatlarga ega bo'lgan bo'sh lavozimga nomzodlarni jalb qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan harakatlar tizimi hisoblanadi.

Tanlovlovdan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, unda zarur malaka va zarur shaxsiy fazilatlarga ega bo'lgan, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni iloji boricha samarali hal qilishga qodir xodimlarni jalb qilishdan nazarda tutiladi.

Kasbiy psixologik tanlovning (KPT) asosiy vazifalari esa, nomzodning tanlangan mutaxassislik bo'yicha muvaffaqiyatli ta'lim olish va faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan individual psixologik fazilatlari va shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishini baholash, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha amaliy faoliyat olib bora olishini baholashdan iborat bo'ladi.

Bugungi kunda ishchi-xodimarning jamiyatdagi o'rnini aniqlash, ularning o'z-o'zlarini anglashini o'rganish dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ishchi-xodimlarni tanlab olish boshqaruvning muhim funktsiyalaridan biridir, chunki faqat insonlarga har qanday resurslardan oqilona va samarali foydalanish usullarini ta'minlay oladi, bundan tashqari tashkilotning iqtisodiy ko'rsatkichlari va raqobatdoshligi tanlangan ishchi-xodimlarga bog'liq bo'ladi.

Ko'p hollarda rahbarlar asosiy diqqat-e'tiborni ishlab chiqarish masalalariga, texnik ta'minlanganlik muammolariga yoki tayyor mahsulotni raqobat bardoshligiga qaratadilar, biroq ushbu yo'nalishlarda xizmat qilayotgan xodimlarga kam e'tibor beradilar.

Bugungi kunda mutaxassislarni tanlash dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Mutaxassislarni o'rganishda odatda uning ishdagi natijalari (erishgan yutuqlari), qobiliyati, ishchi-xodim xarakteri, berilgan lavozimga moslashishi (adaptatsiya) baholandi. Tanlovlar shunisi bilan xarakterliki, ishchi-xodimlarni iqtisodiy muammolarini hal etishda (maosh tayinlash, mukofot va hokazo) uning ish natijalariga ko'proq ahamiyat beriladi, xizmatda ko'tarilishida, xodimlarni joylashtirish, kvalifikatsiyasini oshirishda uning qobiliyat va xarakteriga ahamiyat beriladi.

Tadqiqotimiz ishchi-xodimlarni jamiyatdagi o'rnini aniqlash va o'zlarini psixologik baholash muammosini o'rganishga qaratilganligi sabab, O.F.Potyomkina va Ye.V.Potyomkina tomonidan ishlab chiqilgan «Ozodlik-hukumat», «Mehnat-pul»ga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik ustanovkalarini aniqlash metodini o'tkazdik.

Ushbu metodika ijtimoiy-psixologik ustanovkalarini namoyon bo'lish darajasini aniqlash imkonini beradi. Biz tadqiqotimizda joriy etgan metod nafaqat sinaluvchining yo'nalganligini, balki uning motivatsiyasini uyg'unlashgan yoki uyg'unlashmaganligini, kuchli yoki kuchsiz namoyon bo'lishini, shuningdek, qo'shimcha ravishda muammoli nikohni ham aniqlash imkonini beradi.

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, ishchi-xodimlarning jinsiy xususiyatlariga muvofiq tafovutlar va o'xshashliklar aniqlandi, ya'ni ularda mavjud ijtimoiy-psixologik ustanovkalar turlicha yo'nalganligi tadqiq qilindi. Bunday tafovut va o'xshashliklar 1-jadval orqali berildi.

1-jadval


Tadqiqotda respondentlar	qatnashgan	Ijtimoiy psixologik ustanovkalarining yo'nalganligi			
		Me'nat	Erkinlik	Hokimiyat	Pul
Ayol ishchi namoyon ustanovkalar	xodimlarda bo'ladigan	82,9% (34 ta)	82,9% (34 ta)	34,1 % (14 ta)	65,8 % (27 ta)
Erkak ishchi namoyon ustanovkalar	xodimlarda bo'ladigan	86,6% (39 ta)	88,9 % (40 ta)	71,1 % (32 ta)	44,4 % (20 ta)

Jadvalda berilgan foizlarga ko'ra, «Mehnatga», «erkinlikka» yo'nalishi har ikkala jins vakillarida yuqori ko'rsatkichga ega. Odatda mehnatga moyil insonlar o'z xordiq va dam olish kunlarini ayamay biror ish bilan mashg'ul bo'ladilar, bu esa ularni jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun imkon beradi. «Erkinlikka» yo'nalgan insonlar uchun eng oliy qadriyat erkinlik hisoblanadi. Ko'pincha erkinlikka moyil kishilarda erkinlik mehnatga moyillik bilan chambarchas bog'lanadi. Kam hollarda pulga yo'nalgan bo'ladi. Bizning tadqiqotimizda ayol ishchi-xodimlar erkinlikni pulga yo'nalganlik bilan bog'ladilar. Ayollarning aksariyati, ya'ni 65,8 foizi pul muammosini hal etishga urinayotganligi ma'lum bo'ldi.

Erkak respondentlarning «Mehnat» va «Erkinlikka» yoʻnalganlikdan soʻng, ikkinchi oʻrinda «Hokimiyaga» yoʻnalganligi maʼlum boʻldi, chunki bu moyillik koʻp hollarda kuchli jins vakillariga xos xususiyat hisoblandi. Anaʼanaviy maskulin sifatlar qatorida liderlikka intilish 1-oʻrinni egallab kelgan.

Olingan natijalarga muvofiq ularning grafik usulida tasavvur qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotda qatnashgan sinaluvchilarning, yaʼni ishchi xodimlarning qanday guruʻga mansubligini aniqladik, u 1- chizma orqali berildi.

1-chizma



Chizma tahlil qilinadigan boʻlsa, bunda har ikkala jins vakilari kuchli namoyon boʻladigan uygʻunlashgan motivatsiyaga ega ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan natijalarga asoslanib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

➤ Ishchi xodimlarning jamiyatdagi oʻrni, ularning ijtimoiy psixologik ustnovkalariga bogʻliq boʻladi;

➤ «Mehnat» va «Erkinlikka» yoʻnalganlik koʻrsatkichi yuqori boʻlgan, uygʻunlashgan motivatsiyalarni namoyon eta oladigan shaxs jamiyatda oʻz oʻrnini topa oladi, xurmatga ega boʻla oladi;

➤ kuchli namoyon boʻladigan, lekin uygʻunlashmagan motivatsiyaga ega shaxslar, mehnat faoliyatida jinsiy va ruhiy toʻsiqlarni yengib oʻta olmaydilar.

Bugungi kunda ishchi xodimlarning aksariyati «Mehnatga» 84,6%, «Erkinlikka» 86,0% yoʻnalgan motivatsiyaga ega ekanliklari olingan javoblarda namoyon boʻldi. «Hokimiyat» va «Pul»ga yoʻnalganlik boʻyicha jinsiy farqlar aniqlandi. Unga koʻra «Hokimiyat»ga ayol respondentlarning 34,1%, erkak respondentlarning 71,1% yoʻnalgan boʻlib chiqdi. «Pul»ga esa ayollar erkaklarga qaraganda koʻproq yoʻnalgan boʻlib chiqdi. Ular oʻrtasidagi farq 21,4 % tashkil etdi.

Ishchi-xodimlarning jamiyatdagi oʻrni, ularning oʻzlariga bergan baholari, ijtimoiy-psixologik ustanovkalarining namoyon boʻlishi darajasiga bogʻliq boʻlib, mehnat bilan erkinlikka yoki hokimiyat bilan pulga yoʻnalgan boʻladi degan fikr oʻrinlidir.

REFERENCES:

1. Sadikovich, S. F. (2023). Originality Definition of Visual Diagnostic Methods of Accentuating the Character of a Person. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(2), 17–19. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/557>
2. Soliev F. S., Sodiqova F. F. Psychological health: symptoms of disorders in perception and perception processes //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 78-80.
3. Soliev, F. (2022). Identification of hidden opportunities inherent in the personality psychotype in interpersonal relationships. In *Человеческий капитал как фактор социальной безопасности* (pp. 258-266).
4. Soliev, F. S., & Sodiqova, F. F. (2020). Psychological health: symptoms of disorders in perception and perception processes. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 78-80).
5. Soliev, F. S., and F. F. Sodiqova. "Psychological health: symptoms of disorders in perception and perception processes." *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества*. 2020.
6. Topvoldievna, M. E., & Yulbarsova, L. (2022). Actuality of psychological support in work with children from the risk group. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 51-56.
7. Yulbarsova, A. L. (2022). Actual questions of psychological research of laziness among pupils. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 318-323.
8. Zaynobidinov, J., & Soliev, F. (2020). COLOR MEDITATION IN PSYCHOLOGICAL HEALTH CORRECTION. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 365-367).
9. Зайнобидинов Ж., Солиев Ф. РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ //ББК Ю953. – 2020. – С. 269.
10. Зайнобидинов, Ж., & Солиев, Ф. (2020). РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ. *ББК Ю953*, 269.
11. Зайнобидинов, Ж., and Ф. Солиев. "РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИНТЕРВЕНЦИЙ В УКРЕПЛЕНИИ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ УЧАЩИХСЯ." *ББК Ю953* (2020): 269.
12. Солиев Ф. С., Содиқова Ф. Ф. ПРИЗНАКИ НАРУШЕНИЯ ОЩУЩЕНИЙ И ВОСПРИЯТИЯ //ББК Ю953. – 2020. – С. 78.
13. Солиев Ф. С., Содиқова Ф. Ф. ПРОЕКТИВ ВА ВИЗУАЛ МЕТОДИКАЛАР ЁРДАМИДА СПОРТЧИ ПСИХОТИПИ ВА РУҲИЙ ХОЛАТИНИ АНИҚЛАШ. – 2022.
14. Солиев, Ф. (2020). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF USING THE ACHIEVEMENTS OF SOCIAL PROFILE IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 265-268).
15. Солиев, Ф. С., & Содиқова, Ф. Ф. (2020). ПРИЗНАКИ НАРУШЕНИЯ ОЩУЩЕНИЙ И ВОСПРИЯТИЯ. *ББК Ю953*, 78.

16. Солиев, Ф. С., & Содиқова, Ф. Ф. (2022). ПРОЕКТИВ ВА ВИЗУАЛ МЕТОДИКАЛАР ЁРДАМИДА СПОРТЧИ ПСИХОТИПИ ВА РУҲИЙ ХОЛАТИНИ АНИҚЛАШ.

17. Солиев, Ф. С., & Содиқова, Ф. Ф. (2022). ПРОЕКТИВ ВА ВИЗУАЛ МЕТОДИКАЛАР ЁРДАМИДА СПОРТЧИ ПСИХОТИПИ ВА РУҲИЙ ХОЛАТИНИ АНИҚЛАШ.

18. Солиев, Ф. С., and Ф. Ф. Содиқова. "ПРИЗНАКИ НАРУШЕНИЯ ОЩУЩЕНИЙ И ВОСПРИЯТИЯ." *ББК Ю953* (2020): 78.

19. Солиев, Фарҳоджон Содиқович, and Фариза Фарҳоджоновна Содиқова. "ПРОЕКТИВ ВА ВИЗУАЛ МЕТОДИКАЛАР ЁРДАМИДА СПОРТЧИ ПСИХОТИПИ ВА РУҲИЙ ХОЛАТИНИ АНИҚЛАШ." (2022): 22-33.